



O'QUVCHILAR MUVAFFAQIYATIDA OTA-ONALARING ISHTIROKI

Imomiddinova Shamsiyabonu Lutfiddin qizi

Termiz davlat universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

1-kurs talabasi

E-mail: shamsiyabonuimomiddinova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning muvaffaqiyatga erishish yo'lida ota-onalarning ishtiroki qay darajada muhim rol o'yynashi va qay darajada ta'sir ko'rsatishi haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga, ota-onsa farzandining ta'lim olish jarayonida bergen e'tibori natijasida, bolada o'ziga bo'lgan ishonch hosil bo'lishi , yuqori akademik yutuqlarga erishishi va muomala madaniyatining shakllanishi haqida ham tahliliy ma'lumotlar aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: o'quvchilarning muvaffaqiyati, ota-onaning e'tibori, qo'llab-quvvatlash, ota-onalarning o'qituvchilar bilan aloqasi, farzandni ruhlantirish , dunyoqarashning o'sishi, akademik yutuqlar.

Abstract. This article talks about the importance and influence of parental involvement on the success of students. As a result of the attention given to the child, there is analytical information about the formation of self-confidence, high academic achievements, and the formation of the culture of behavior.

Key words: student success, parental attention, support, parent-teacher relationship, child encouragement, worldview growth, academic achievement.

Kirish. Ta'lim har bir jamiyatning rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bolalarning o'qish jarayonidagi muvaffaqiyati nafaqat maktabdagi o'qituvchilar, balki ota-onalarning ham faol ishtirokiga bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalari ta'lim jarayonida faol bo'lgan bolalar



yaxshi natijalarga erishadi, o‘zini intizomli tutadi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Bugungi kunda o’quvchilarning yuqori natijalarga qay tartibda erishishi borasida olimlar ko’plab ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar va bu izlanishlarning natijasiga ko’ra, o’quvchilarning akademik yutuqlarga erishishi ota-onalarning ishtirokiga bog’liq ekan. Aniqroq qilib aytadigan bo’lsak, ota-onalar o’z farzandlarini ta’lim olish jarayonini nazoratga olsa, vazifalarini bajarishga ko’mak bersa shu bilan birga rivojlanishida faol ishtirok etsalar, farzandlari ko’plab yuksak natijalarni qo’lga kiritadilar.

Ma’lumot o’mida shuni aytib o’tish mumkinki, 2012-yil 19-iyun kuni Vazirlar Mahkamasining “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlanishish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 175-sonli qarori qabul qilinib, “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi [1].

Ota-onalar bolalarning dastlabki tarbiyachilari hisoblanadi. Farzand dunyoga kelganidan boshlab, ularning axloqiy, hissiy va intellektual rivojlanishi bevosita ota-onalar tomonidan shakllantiriladi. Shu sababli, maktab yoshiga yetgan bolalarning o‘qishga bo‘lgan munosabati, bilimga chanqoqligi va muvaffaqiyatga intilishi ko‘p jihatdan oilaviy tarbiyaga bog’liq. Ota-onalarning ta’lim jarayonidagi o’rni va ishtiroki quyidagilardan iborat bo’lishi kerak:

1. Ota-onalar tomonidan ta’lim muhitini shakllantirish :

Farzandlarini yuqori natijalarga erishishini istagan ota-onalar o’z uylarida o’quv muhitini yaratishlari kerak. Masalan, ko’pincha, ta’lim sohasida suhbat qurishlari va kelajakda uni qanday yutuqlar kutib turgani haqida ham qiziqtirishlari kerak. Bundan tashqari, uy sharoitida bolaga dars tayyorlash uchun sharoit yaratish, uni intizomli va mas’uliyatli bo‘lishga o‘rgatish kerak.



2. Farzandning bilim olishiga qiziqish bildirish:

Darslar bo'yicha savollar berish, uy vazifalarini nazorat qilish va ta'lim jarayoni bilan muntazam shug'ullanish kerak.

3. Maktab va o'qituvchilar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish;

Ota-onalar maktab bilan hamkorlik qilishlari zarur. O'qituvchilar bilan aloqada bo'lish, ota-onalar yig'ilishlarida qatnashish va farzandining mактабдаги holati haqida muntazam ma'lumot olishlari kerak.

Multindikator klaster kuzatuvi (MICS) natijalariga ko'ra, O'zbekistonda faqatgina 5 % otalar farzandlarining ta'lim jarayonlarida ishtirok etishi ma'lum bo'lgan. O'zbekistonda uchinchi bor tashkil etilgan Multindikator klaster kuzatuvida tanlab olingan 556 ta mahallada joylashgan 15 mingdan ortiq uy xo'jaliklarida, joyiga chiqqan holda respondentlar bilan suhbatlashish orqali ma'lumotlar jamlangan. [2022-y.][2].

Ota-onalar farzandlarining ta'lim olish jarayoniga yaxshi ta'sir ko'rsatish lari uchun turli xil yondashishlari kerak. Masalan, rag'batlantirish va motivatsiya berishlari, tashkiliy, axloqiy va psixologik yordam berishlari kerak. Bolani bilim olishga rag'batlantirish muvaffaqiyat sari tashlangan eng muhim qadam hisoblanadi. Quyidagi omillar bolaga motivatsiya berishda muhim rol o'ynaydi:

Qo'llab -quvvatlash: Ota-onalar farzandlariga o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda yordam berishi lozim. Ularning harakatlarini qadrlash, kichik yutuqlarini e'tirof etish ularni yanada yaxshi o'qishga undaydi.

Mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish: O'quvchilarni faqat o'qituvchilar yoki ota-onalarning talablariga mos kelish uchun emas, balki o'z kelajaklari uchun bilim olishga undash zarur.

Ilmiy va ijodiy faoliyatga yo'naltirish : Farzandlarni faqat darslarda yaxshi baho olishga emas, balki ilmiy izlanishlar, loyihamar va ijodiy ishlarga qiziqtirish lozim.



Ota-onalar farzandlari uchun tashkiliy yordam sifatida dars tayyorlash uchun qulay muhit yaratishlari kerak, ya’ni farzandining samarali o’qishi uchun uyda tinch va qulay joy tayyorlanishi kerak. Reja tuzishni o’rgatishlari lozim ya’ni kundalik o’quv jadvali va rejallashtirish o’quvchining samarali ta’lim olishiga yordam beradi. Shu bilan birga o’qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishlari mumkin. Sababi, elektron ta’lim platformalari ,onlayn darslar va interaktiv materiallardan foydalanish bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi.

Shuni aytib o’tish joizki, ota-onalar farzandlariga axloqiy va psixologik yordam sifatida stress va bosimdan himoya qilishlari kerak ya’ni o’quvchilarning haddan tashqari zo’riqishiga yo’l qo’ymaslik , ularning hissiy barqarorligini taminlash kerak. Bundan tashqari, ijtimoiy va hissiy ko’nikmalarini shakllantirish zarur , ya’ni bolalarmi nafaqat akademik jihatdan , balki ijtimoiy jihatdan ham tarbiyalash zarur. Shu bilan birga, farzand bilan ochiq muloqot olib borish , o’qishga oid muammolarini erkin ayta oladigan muhit yaratish kerak.

Ota-onalarning noto‘g‘ri yondashuvlari va ularning salbiy oqibatlari:

Ba’zi hollarda ota-onalar farzand tarbiyasida noto‘g‘ri yondashuvlarni qo‘llashi mumkin. Bunday holatlar bolaning o‘qishga bo‘lgan munosabatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi:

Haddan tashqari talabchanlik: Farzanddan faqat mukammal natijalarni kutish, unga ruhiy bosim o‘tkazish stress va tashvish darajasini oshirishi mumkin.

Loqaydlik: Farzandning o‘qishiga befarq bo‘lish, uning muvaffaqiyatlariga qiziqmaslik bilim olishga bo‘lgan qiziqishning pasayishiga olib keladi.

Farzandning qobiliyatini inobatga olmaslik: Har bir bolaning o‘ziga xos qobiliyatlari bor. Ularni e’tiborsiz qoldirish va majburan o‘z xohlagan yo‘nalishga yo‘naltirish bolaning qiziqishini so’ndiradi.



Ota-onalar va o‘qituvchilar hamkorligining ahamiyati.

Ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi doimiy muloqot bolalarning intizomi va o‘quv natijalariga ijobiy ta’sir qiladi va bolalarning qobiliyatlarini erta aniqlash va ularni to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam beradi. Shu bilan birga, uy va maktab muhitining uyg‘unligi o‘quvchilarning ruhiy holati va ta’lim jarayoniga bo‘lgan munosabatiga ta’sir qiladi.

Ma’lumki, Xalq ta’limi vazirligining 2021-yil 22-fevral kungi 41-sonli buyrug‘i bilan sinf rahbarlariga qo‘yiladigan talablar o‘zgartirilib, 5-sinfdan boshlab, 11-sinfga qadar yagona sinf rahbarini tayinlash tartibi joriy etildi [3]. Ammo bu tartib ham turli xil omillar sababli uzoqqa cho‘zilmadi. Ularning oylik maoshlari pastligi, ammo ish yuklamasining ko‘pligi ota-onalar bilan ishlashga yetarlicha vaqt ajratmasligiga ham sabab bo‘lgan bo‘lishi tabiiy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabrdagi PF-6108-sonli farmoni bilan 2020-yil 1-noyabrdan boshlab sinf rahbarlarining oylik maoshi biroz oshirildi [4]. Lekin, sinf rahbarlarining faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi nizomda ular uchun belgilangan talablar oylik maoshga nisbatan ancha yuqori edi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ota-onalar farzandlarining muvaffaqiyatiga ta’sir ko‘rsatadigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning ta’lim jarayonidagi faol ishtiroki bolalarning intellektual va axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Darhaqiqat, ota-onalarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki nafaqat farzandlarining, balki butun jamiyatning kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 175-son qarori.



2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg‘armasi (UNICEF). Oktyabr, 2022.

2021-2022 yillarga O‘zbekistonda Multiindikator klaster kuzatuvi(MICS). Statistik sharh. Toshkent, O‘zbekiston: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg‘armasi (UNICEF).

3.Xalq ta’limi vazirligining 2021-yil 22- fevral kungi “ 5-sinfdan boshlab 11-sinfga qadar yagona sinf rahbarini tayyorlash to’g’risida”gi 41-sonli buyrug’i.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11- noyabrdagi “2020-yil 1- noyabrdan boshlab sinf rahbarlarining oylik maoshi oshirilishi to’g’risida”gi PF-6108-sonli farmoni.